

Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:38 (67203)
2018-yil 17-sentabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Zamira AZIMBOYEVA,

Toshkent shahar, Olmazor tumani xalq ta'limi bo'limi boshlig'i:

«O'QUVCHI QALBIGA YO'L TOPISH MAHORATDIR»

A'lo

baholarga o'qiyotgan

10–11-sinf o'quvchilari o'rtasida

«Bir kunim universitetda» tajriba

loyihasini sinab ko'rmoqchimiz. Bunda

eng iqtidorli, a'lochi o'quvchilar O'zbekiston

Milliy universitetiga borib, bitiruvchi talabalar,

professor o'qituvchilardan saboq olishini

yo'lga qo'ymoqchimiz. Maqsadimiz, bolalar

yanada yaxshi o'qisin, izlansin, o'z

bilimi bilan oliy o'quv yurti

talabasi bo'lsin.

2-bet



ESHITMADIM, DEMANGLAR!

Aziz o'quvchilar! Sizga xushxabarimiz bor. Endilikda yangilikka intiluvchan yoshlardan tortib, fidoyi ustozlar, qolaversa, oddiy gazetxonlar internet tarmog'idagi yangilangan www.tongyulduzi.uz sayti orqali «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarini muntazam kuzatib borishlari mumkin.

Bundan tashqari, «Telegram» ijtimoiy tarmog'ida tashkil etilgan yangi t.me/tongyulduz kanalimiz yordamida eng sara maqolalar, yangiliklar va donolar fikrlarini o'qish imkoniga egasiz. Shunday ekan, kanalimizga a'zo bo'ling va bizni internet tarmog'ida ham kuzatib boring!

Har kunda g'ayrat bo'lmasa, unda
o'zgarga ibrat bo'la olish qobiliyati
bo'lmaydi.



«O'QUVCHI QALBIGA YO'L TOPISH MAHORATDIR»

Zamira AZIMBOYEVA:

Bugungi suhbatdoshimiz ta'lim sohasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, o'zining bir necha aniq loyihalari bilan maktablarda yangicha ish uslublarini joriy qilgan fidoyi pedagog, poytaxtimizning Olmazor tumani xalq ta'limi bo'limi boshlig'i Zamira Azimboyevadir. Tashabbuskor ustoz bilan kuni kecha qabul qilingan «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonning mazmun mohiyati xususida suhbatlashdik.

– Prezidentimizning «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»dagi Farmonning qabul qilinishi sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etishda muhim tarixiy hujjat bo'ldi, shunday emasmi?

– Darhaqiqat, joriy yil ta'lim tizimida tarixiy voqealarga boy yil bo'ldi. Kuni kecha qabul qilingan yangi Farmon o'quv-tarbiya jarayonida boshqaruvning yangi mexanizmlarini joriy etish, jamiyatda o'qituvchining nufuzini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganining yana bir amaliy tasdig'i bo'ldi. Ushbu hujjatni o'qigach, ta'lim tizimidagi qator muammolar yechimiga javob topganday bo'ldim.

Yaqinda bir ma'lumotga ko'zim tushdi: yurtimizda 9 ming 628 ta maktabning 5 ming 776 tasi kapital ta'mirga muhtoj ekan. 2 ming 695 tasida kompyuter sinflari mavjud emas. Jami maktablarning 93 foizi internetga ulanmagan ekan.

Xabaringiz bor, Prezidentimiz poytaxtimizning Shayxontohur tumaniga tashrif buyurganlarida, hududdagi har 3 ta umumta'lim muassasasining biri ta'mirga muhtoj ekanligini aytib o'lgan edilar. Bu Toshkent shahridagi birgina tuman misolida kuzatilayotgan holat. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, tizimda yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Yangi Farmon bu kabi muammolarni hal etish, yechimlarini ko'rsatishi bilan muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, maktablar qurish, ta'mirlash, investitsiya jalb qilish, ularning moddiy texnika bazasini rivojlantirish kabi qator muammolarni bartaraf qilish yangi hujjatga binoan hokimliklar zimmasida bo'lishi bizni quvontirdi.

– Farmonda joriy yilning 1-oktabridan umumta'lim maktablarida vasiylik Kengashlari bekor qilinib, uning o'rniga maktab faoliyatiga hissa qo'shishga qodir faol ota-onalar, bitiruvchilar, homiylar va boshqa shaxslardan tarkib topgan Kuzatuv Kengashlari tashkil qilinadi, deb belgilab qo'yildi. Ushbu yangilik haqidagi fikrlaringizni bilmoqchi edik.

– Oliygo'hn bitirgach, uslubchi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yetakchi mutaxassis vazifalarida faoliyat yuritganman. Olmazor tuman xalq ta'limi bo'limida uslubchi bo'lib ishlaganimda, 224-umumta'lim maktabiga ko'p borardim. Bir yil avval bu bilim dargohining o'quvchilar kontingenti kamayib,

reytingi eng past ko'rsatkichda edi. Maktab ta'mirlalab ahvolda qolgan edi. U yerda yashovchi insonlar bilan suhbatlashganimgizda, ushbu ta'lim dargohi avvallari ilg'or o'quv muassasasi bo'lgani, bugun davlat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ko'pgina fidoyi insonlar aynan shu yerda tahsil olganini aytishdi. Maktabga 2017-yil 6-aprel kuni direktor bo'lib ishga kelgach, birinchi navbatda «Dars – muqaddas» tamoyiliga amal qilinishini nazoratga oldim. O'qituvchilar, o'quvchilar dars paytida mashg'ulot xonasida bo'lishini shaxsan o'zim kuzatib bordim. Maktabga qonuniy yo'l bilan mablag' kiritish ishlarini yo'lga qo'ydim. Ushbu dargohni zamonaviy ta'lim maskaniga aylantirish bo'yicha Olmazor tuman xalq ta'limi bo'limiga bir necha loyihalarimni taklif qildim.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni asta-sekin izga tushayotganini sezgan ota-onalar va homiylar takliflarimni ma'qulladi va o'z yordamlarini taklif qilishdi. O'quvchilar ta'tilga chiqqan kuniyoq, ta'mir ishlarini boshladik. Quvonarlisi, ta'lim dargohi qisqa muddatda zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi. Yangi faollar zali, sport maydoni, texnologiya fani xonasi qurildi. Qolaversa, eng so'nggi rusumdagi zamonaviy kompyuterlarga ega bo'ldik. Natijada, maktabimizda ilm olishni istovchi o'quvchilar soni kundan kunga ortib bordi.

Oldimizda nima qilsak, ta'lim sifatida yanada yuqori natijalarga erishamiz, degan savol turardi. Birinchi galda o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qildik. Buning uchun maxsus

komissiya tashkil etib, savol-javob o'tkazildi. Maktabdagi o'qituvchilarning 90 foizi ana shunday ustozlar bilan almashtirildi. Dars vaqtida o'quvchi-



larning ko'cha-ko'yda bekor yurishlariga chek qo'yildi. Natijada, 2017-yilni 380 nafar o'quvchi bilan tugatgan bo'lsak, hozirgi kunda ta'lim muassasasida 1450 nafar o'g'il-qiz tahsil olmoqda.

Ammo biz harakatdan aslo to'xtamadik. Maktabda zamonaviy ta'lim berish choralari izladik. Multimedia markazidan elektron darsliklar sovg'a qilishdi. Har bir xonani texnika vositalari bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. Shuningdek, o'quvchilarning bilimi, xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi, sport sohasidagi yutuqlariga qarab ularni bir necha nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirish ishlarini yo'lga qo'ydik. Iqtidorli o'g'il-qizlar uchun stipendiyalar tashkil qilindi. A'lo baholarga o'qigan va namunali xulqi uchun o'quvchilar yilda ikki marta stipendiyani olishadi. Ular sinf rahbari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, o'quv ishleri

bo'yicha direktor o'rinbosari tavsiyalariga ko'ra bu rag'batga munosib ko'riladi. Shuningdek, o'quvchilar ma'lum mezonlar, masalan, maktab formasiga rioya qilish, kundalik daf-tarini yuritish, o'quv qurollari bilan o'z vaqtida darsga kelishi kabi bir necha oddiy talablar bilan ball yig'ishi orqali ham rag'batlantiriladi. Bu mezonlarga binoan ko'p ball yig'gan o'quvchilarga eng yaxshi oromgohlarga yo'llanma beriladi. Mazkur tajribamni ota-onalarga ham tushuntirdim va fikrimni ular ham qo'llab-quvvatlashdi. Shuningdek, fanlarni yaxshi o'zlashtirayotgan va jamoat ishlarida faol qatnashayotgan o'quvchilarga maktabda pul ekvivalentiga ega makbalar tarqatishni yo'lga qo'ydik. Har bir bola turli ko'rsatkichlar bo'yicha marka yig'di va maktabda tashkil etilgan yarmarkada markalar miqdorida yangi yil dasturxonini uchun mahsulotlar sotib olishdi. Farzandini har kunlik o'qishini nazorat qilib borib, yuqori natijalarga erishishiga yo'naltirgan ota-onalarga ham marka tarqatildi.

Bugun 224-umumta'lim maktabidagi ezgu tashabbuslarni butun hududdagi ta'lim maskanlariga joriy etishni maqsad qilganman. Maqsadimiz, bolalar yanada yaxshi o'qisin, o'z ustida izlansin. O'z bilimi bilan oliy o'quv yurti talabasi bo'lsin. Qolaversa, bu yil oltin va kumush medal sohiblari bo'ladigan o'quvchilar va ularning ota-onalarini ham rag'batlantirishni rejalashtiryapmiz.

– Mazmunli suhbatangiz uchun tashakkur!

Nodira NAZAROVA
suhbatlashdi

USTOZ TASHABBUSI

**Olmazor tumani xalq ta'limi bo'limi
mudirasi tashabbusi bilan tumanda
«Yosh pedagoglar maktabi» faoliyati
yo'lga qo'yildi.**

Kuni kecha tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan «Yosh pedagog – sifatli ta'lim sari» mavzusida o'quv-amaliy seminar tashkillashtirildi.

Tadbirida «O'qituvchining kiyinish uslubi va muomala madaniyati», «Ta'limdagi bo'shliqlarni bartaraf etishda qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi usullar» kabi ma'ruzalar videorolik tarzida tayyorlanganligi yosh pedagoglarda katta taassurot qoldirdi.

– Seminar tashkil etilganidan xursandman, – deydi 15-umumta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchi Gulzoda Muhiddinova. – Men bu ta'lim maskaniga yaqinda ishga qabul qilindim. Tajribali ustozlardan hali ko'p narsa o'rganishim lozim. Bugun biz pedagoglarga ta'lim tizimiga ixtisoslashgan yangi sayt va kanallar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi. Keyingi seminarida o'qituvchining me'yoriy hujjatlarni yuritish hamda psixolog maslahatlari haqida treninqlar o'tkazish taklifi bildirildi.

O'quv-seminar so'nggida har bir yosh pedagogdan psixologik so'rovnomalar o'tkazilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

**O'quvchi-
larning bilimi,
xulqi va jamoat ishlarida-
gi faolligi, sport sohasidagi
yutuqlariga qarab ularni bir
necha nominatsiyalar bo'yicha
rag'batlantirish ishlarini
yo'lga qo'ydik.**

KUTUBXONADA UN KITOBXONI ANIQLANDI

Respublika bolalar kutubxonasining Anjumanlar zalida Toshkent madaniyat kolleji o'quvchilari chalayotgan doiraning «baka-bum»i avjiga chiqqan. Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabi kutubxonachisi Farida opa Begayeva boshchiligidagi o'quvchilar raqs, she'r tayyorlab kelgan. Nurxonada bayram ekan-da, deysizmi? Xuddi shunday.



Dastlab kitobxon o'quvchilar jon-dillari bilan eshitadigan she'rlardan o'qib berish uchun shoir Ravshan Isoqovga navbat berildi. Ijodkorning ona Vatan haqidagi she'rlaridan bahramand bo'lgan o'quvchilar «Biz ham bo'sh kelmaymiz», deya o'zlari tayyorlagan badiiy chiqishlarni yig'ilganlarga namoyish etishdi. Ayniqsa, Shahzoda Jo'raqulovanning raqsi bayramga monand bo'ldi.

Navbat kutubxona tomonidan avgust oyida o'tkazilgan «Kun kitobxon»i aksiyasining g'oliblarini e'lon qilishga keldi. Tanlovda I darajali

diplomni qo'lga kiritgan Umarmirzo unga havas bilan boqayotgan tengdoshlarini kitobxonlikka chorladi.

Shundan so'ng, hamkasbimiz shoira Zahro Hasanova mustaqil diyorimizdagi tinchlik tufayli Siz aziz bolajonlarning ta'lim olishingiz uchun barcha imkoniyatlar yaratilayotganini ta'kidlab, «Notinch mamlakatlarda» nomli she'rini o'qib berdi. Biz esa tadbirida faol ishtirok etgan o'quvchilarga gazetamizning yangi sonlarini ulashdik.

Sayyora QODIROVA.

Surat muallifi: J. ABDULLAYEV

Kimki bilimga tayansagina,
to'xtovsiz kamol topadi va yutuqlarga
erishaveradi.

Bu yil mak-
tabga bordim. Bilim
maskani menga birinchi
kundanoq juda yoqdi.

FARIZANING VA'DASI



Fariza FARMONOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tuma-
nidagi 43-umumta'lim maktabining
1-«D» sinf o'quvchisi

MENI QUVONTIRGAN YANGILIK

Yangi o'quv yilini ajoyib
yangiliklar bilan boshladik. Ya'ni,
Yurtboshimizning Qarorlariga ko'ra,
endilikda bitiruvchilarning eng sa-
ralariga oltin va kumush medal-
lari berilar ekan.

Men 9-sinfni imtiyozli shahodat-
noma bilan bitirgan edim. Endi
ushbu o'quv yilida ham faqat a'lo
baholarga o'qishga harakat qilaman.

Qolaversa, har doim jamoat ishlari-
da faol bo'lishga intilaman. Yozgi ta'tilda

«Eng yosh kitobxon» tanlovida qatnashib, sovrinli o'r in va qimmatbaho
sovg'a ega bo'ldim. Bu muvaffaqiyatlarimning sababchisi so'zsiz ki-
tobdir. Shunday ekan, maqsadimga erishish uchun o'qib, izlanishdan
tolmayman. Qolaversa, eng namunali bitiruvchi sifatida oltin medalga
sazovor bo'lishga bel bog'layman.

Mohidil G'AFUROVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
31-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA

MEVASIN YEB BOG'INI HAM SO'RAB QO'YGIN!



O'yib yesang – o'n kun yeysan,
Qirib yesang – qirq kun.

Bu xalq maqolini kim ham bilmaydi, dey-
siz? Lekin bunga rioya qiluvchilar oramizda
qancha ekan-a?! Hozir bilmadim-u, avvallari
bunday insonlar ko'p edi. Har bir ne'matni
asrab-avaylab, tejab, hatto ko'zga surtib
iste'mol qilishgan edi ota-bobolarimiz.

Ajdodlardan ibrat olsak, ular daryo
bo'yida yashab ham do'ppisida suv olib
ichganini yoki moychiroqdan qutulganiga
shukrona keltirib, faqat qorong'uda chiroq
yoqqanini ko'rishimiz mumkin.

Biz esa yoz kunlarida suv jo'mragini
ochib qo'yib, tarvuzni «muzdekkina»
yeyishni istab qolamiz. Yoki televizorni
yoqib, uyquga ketamiz. Gazdan ham
istagancha foydalanib, tekshiruvchilarga
«Pulini to'layapman-ku, xohlaganimni
qilaman», deb do'q uramiz. Asli to'la-
nayotgan to'lovlar tabiiy resurslarni bizga
yetkazib berish uchun sarflanayotgan xa-
rajatlar uchundir. Zero, bu ne'matlarning
manbalarini Sulaymon xazinasi bilan ham
tiklab bo'lmaydi. Chunki yotib yeganga tog'
ham chidamaydi.

Ba'zan zamona va taraqqiyot bilan
hamnafas bo'lamiz-u, me'yorni unutilib
qo'yamiz. Aslida qo'l telefonini quvvatga
to'ldirish, kompyuterdan foydalanishda ham
oqilonalikka rioya qilish mumkin. Shu o'rinda
ba'zi tengdoshlarimizni aziz ne'matlarni
tejavshga doir qilayotgan ixtirolarini quvonch
bilan tilga olish mumkin. Biz ham savobli
ishga hissa qo'shib, xonadonimizdagi suv,
gaz va elektrni behudaga sarflamaylik.
Bu bilan ota-onamizning mehnatini ham
qadrlagan bo'lamiz. Qolaversa, O'zbekis-
ton xalq shoiri Iqbol Mirzo yozganidek:
Mevasini yeb, bog'ini ham so'rab qo'ygin,
Kerak bo'lsa, bog' atrofni o'rab qo'ygin,
Nihollarning kokillarini tarab qo'ygin,
Ozodlik ham, obodlik ham o'zi kelmas,
Oydan tushgan emas, ko'kdan tushgan emas.

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
27-umumta'lim maktabining
10-sinf o'quvchisi

Vatanimiz hududida bitilgan Zardo'shtiylik-
ning muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto»da
suvning muqaddas ne'matligi ta'kidlangan.

BUNGA KIM SABABCHI?

O'sha zamonlarda suvni ifloslantirgan, unga
tufilagan kishini xoh u amaldor, xoh oddiy odam
bo'lsin, qattiq jazolashgan ekan. Qolaversa, biologi-
ya fanidan suv haqidagi o'qigan ma'lumotlarga e'tibor bersak,

usiz hayot yo'qligini tushunishimiz qiyin emas.
Dunyoda shunday davlatlar borki, u yerda yashovchi xalq
yerosti suvlarini ichimlik suvi o'mida iste'mol qilmoqda. Jumladan,
Angliyada yerosti chuchuk suvlari hisobiga zarur bo'lgan ehti-
yojning 2/3 qismi, Yaponiyada 9/10 qismi darajasida qondiriladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda sayyoramiz aholisining
1,5 mlrd.ga yaqini ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekadi.
Bizning yurtimizda boshqa mamlakatlarga nisbatan obihayot
ancha mo'l. Pomir va Tyan-Shan tog'laridan boshlanuvchi
o'nga yaqin daryolar xalqimizning suvga bo'lgan talabini
qondirib kelgan.

Afsuski, keyingi yillarda yurtimizning ba'zi hududlarida obihayot
tanqisligi kuzatilmoqda. Ilgari aholi foydalanib kelgan ariq va
kanallarning suvlari yaroqsiz holga kelmoqda. Eng achinarlisi,
bunga biz insonlar sababchi bo'lmoqdamiz. O'zimiz iste'mol
qiladigan zilol suvni ifloslantirmoqdamiz. Shunday ekan, ke-
ling, jonajon yurtimizda suv tanqisligi muammosining kuchayib
borishiga yo'l qo'ymaylik. Undan asrab-avaylab foydalanaylik!

Xondamir MEHMONOV,
Shahobiddin HAKIMOV,
Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi
31-umumta'lim maktabi o'quvchilari

Tirishqoqlik ilm sari yagona yo'ldir.

YANGI O'QUV YILIGA ORZULAR BILAN...

Yangi o'quv yilini, ayniqsa, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 199-Imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim maktab-internati o'quvchilari o'zgacha kayfiyatda kutib oldi.

— Maktabimizda 248 nafar o'quvchiga 70 nafar o'qituvchi saboq beradi. 53 nafar bola esa uyda ta'lim oladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga homiylar o'quv qurollari, doska va nogironlar aravachasi sovg'a qilishdi. Shuningdek, ular turli geometrik shakllar, koptokchalar, oyoqdagi asab tolalarini rivojlantiruvchi maxsus uqalovchi gilamchalar bilan ta'minlandi, — deydi maktab direktori Nargiza opa Rustamova. Shuningdek, 120 o'ringa mo'ljallangan faollar zaliga bolalar uchun qulay o'rindiqlar keltirildi. Endi ular bayram tadbirlarini miriqib tomosha qilishlari mumkin.

Maktab sport zalining ta'mirlanishi o'quvchilar quvonchiga quvonch qo'shdi. Oshxonaga 70 nafar o'quvchiga mo'ljallangan yangi stol-stullar olib kelindi.

Bugun bilimlar saroyiga qadam qo'ygan bolajonlar o'quv yili oxirida maktabni a'lo baholarga bitirishlariga tilakdoshmiz.

Aziz bolajonlar, yozgi ta'til davrida maktabda eng a'lochi o'quvchi bo'lishga, ota-onangiz ishonchini oqlashga o'z-o'zingizga so'z bergansiz, shunday emasmi? Axir bilim dargohingizda yaratilgan barcha sharoitlar sizning kelgusida bilim cho'qqilarini zabt etishingiz, Vatan ravnaqiga hissa qo'shishingiz uchun, albatta. Bugun Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanidagi 40-umumta'lim maktabi haqida to'xtalib, u yerda tahsil olayotgan tengdoshlaringiz bilan yaqindan tanishamiz.

Maktab direktori, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati Sanobar opa Xo'jamuratova bilan bog'langanimizda, ular ayni qizg'in ish jarayonida ekanlar. Shunga qaramay, biz bilan o'quvchilarining yutuqlari haqida suhbatlashishga ulgurildilar:

— Ayni dam maktabimizda 1 ming 250 nafardan ziyod o'quvchi tahsil oladi. Barcha o'qituvchilar darslarni noan'anaviy usullarda, yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boradi. Bu esa ijobiy natija berib, maktabimiz o'quvchilari mamlakatimiz miqyosida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Birgina 2017–2018-o'quv yili-da bilim dargohimizdan 31 nafar o'quvchi barcha fanlardan 82,8 ball to'plagan holda o'rtacha samaradorlik bo'yicha tumanda 1-o'rinni egalladi. 10-sinf o'quvchisi Aziza O'rinboyeva «Umid nihollari» sport musobaqasida shaxmat bo'yicha Qoraqalpog'iston chempioni bo'ldi va oltin medal bilan taqdirlandi. Boks bo'yicha Amirbek G'afforov Respublika musobaqasida 1-o'rinni egalladi. Bu borada ustozlardan Mehribon Rahimova, Rahim O'rozimbetov, Ra'no Nurmatova, Zulfiya Do'stliyeva, Amina Allaniyazovalarning mehnatlarini alohida tilga olish joiz.

Ha, aytgancha, bu maktabda kitobxon o'quvchilar talaygina ekan. Buni biz «Kitobxon maktab» tanlovida bilim maskani jamoasi 1-o'rinni, Qoraqalpog'istonda esa 3-o'rinni, «Yosh kitobxonlar» tanlovining tuman va Qoraqalpog'iston bosqichlari g'olibi bo'lganlaridan bilib oldik. Ilm maskanida «Ustozlar bog'i» tashkil qilingan bo'lib, o'qituvchilar tomonidan o'tqazilgan 100 tup mevali ko'chatlar ayni dam hosilga kirgan. Yoshlar ittifoqi yetakchisi Ravshan Reyimov va 9-sinf o'quvchilari tashabbusi bilan «Yoshlar bog'i» ham tashkil etilgan.

— Yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash — bosh maqsadimiz. Buning uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz. Har bir o'quvchiga ta'lim-tarbiya berish biz pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi, — deydi Sanobar opa suhbatimiz so'nggida.

Biz esa maktab jamoasi va o'quvchilariga yangi o'quv yilida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

ENG YAXSHI SOVG'A

Yaqinda xizmat safari bilan ko'hna va navqiron Keshda bo'lib qaytdik. 73 mamlakat vakillari qatnashgan maqom bayrami munosabati bilan Shahrisabz shahri yanada chirov ochib, bog'-u bo'stonga aylanganiga guvoh bo'ldik.

Sohibqiron Amir Temur qurdirgan Oqsaroy, Ko'ksaroy kabi tarixiy obidalarini ko'rib, ajdodlarimizning bunyodkorlik ishlariga tahsinlar aytdik. Mana, necha asrlar o'tsa hamki, bu inshootlar jahon ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Safar davomida «Tong yulduzi» gazetasi muxlisilari bilan ham uchrashdik. O'quvchilar yangi o'quv yilini, shu bilan birga, sevimli nashrlari bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishni qizg'in boshlab yuborishibdi.

Javohir, Temur va Malikaxon Jabborovlar Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanining Hazora qishlog'ida istiqomat qilishadi. Javohir davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 9-sinfida, Temur va Malikaxon esa 39-umumta'lim maktabining 4-sinfida tahsil olishar ekan.

Farzandlaridagi ilm olishga bo'lgan ishtiyoqni ko'rgan ota-ona Javohirni 6 yoshidan maktabga beradi. Yosh bo'lishiga qaramay, oila kenjatoyi ilm dargohida faqat a'lo baholarga o'qiy boshlaydi. 4-sinfga o'tganida «Ibn Sino» va «Bahor» deb nomlangan ilk she'rlarini yozdi. «Sehrlari xarita» deb nomlangan hikoyasi yaqinlari, ustozlari tomonidan iliq qarshilandi. Yaqinda yosh ijodkorning «Shahrisabz javohiri» nomli ilk kitobchasi nashr etildi. Singlisi Malikaxon ham akasi singari she'rlar mashq qilmoqda ekan. Yozgi ta'til vaqtida «Vatanim», «Bobojonim» nomli she'rlar yozibdi.



BOBOJONIM

Bobojonim, bobojon, Mana bugun to'yingiz. Sakson yoshingiz bilan, Tabriklaydi qizingiz.

Bugungi to'yingizda, Mushoira qilamiz. Ko'plab she'rlarni aytib, Sizni xursand qilamiz.

Bolalarning kitobga mehr qo'yib, ijod gulshaniga erta kirib kelishlarida ota-onalari, bobo-momolarining xizmatlari beqiyos. Ayniqsa, buvijonlari Saidamomo tunlari so'zlab bergan ertak, rivoyat, xalq qo'shiqlarining mahsulidir, balki.

Bu oilada boy kutubxona tashkil etilgan bo'lib, kitob alohida qadrlanar ekan. Farzandlar ota-onalaridan ibrat olib, bilim manbai bo'lgan kitobni e'zozlashlari bizni, ayniqsa, quvontirdi.

Dilorom HOTAMOVA

MAKTABIMIZ 50 YOSHDA

Salom, «Tong yulduzi» gazetasining fidoyi ijodkorlari! Barchangizni, qolaversa, ilmga chanqoq o'quvchilarni va ustozlarni yangi o'quv yili boshlanishi bilan samimiy qutlayman.

Bu yil maktabimiz 50 yoshga to'ldi. Bu sana ta'lim dargohimiz o'qituvchi-yu o'quvchilari tomonidan katta shodiyona bilan qarshi olindi. Sahnada o'quvchilar turli raqs va she'rlar ijro etishdi. Ayniqsa, quvnoq kuy-qo'shiqlar tadbirga yanada fayz bag'ishladi. Yosh o'g'il-qizlar qalbida o'qishga bo'lgan ishtiyoq va intilishni ko'rib, biz ustozlar rosa sevindik.

Farogat UZOQOVA, Toshkent shahar, Yashnobod tumandagi 67-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



FIRST DAY AT SCHOOL

(Continue.

Started in the lesson 37)


The teacher settled down Asila and her friends in the airy and bright classroom. After that the teacher gave her introduction.

She told students about many activities they would do in the class.

The teacher told the student that they would study every day. She said that they would learn to read and write very soon. She told the children a very funny story and everyone laughed. The teacher said, «We will start with alphabets. There are 26 alphabets. After that, we will learn how to count numbers from 1 to 20. We will recite some poems and rhymes too». Now it's time for lunch. All the students gathered in the school cafeteria. Everybody chose his favorite lunch. They were free to talk. Asila picked up her favorite lunch and ate heartily. After the game was over the teacher told students to draw and paint a beautiful art pieces. Students were given paper and colors. The teacher exhibited all the pictures on the wall. Asila painted a fruit tray (Continue).



WRITE THE ANSWER



Ten + two = twelve
Five + seven = ...
Eight + nine = ...
Twelve - eight = ...
Seventy - two = ...
Four • two = ...
Fourteen - ten = ...
Six • eight = ...
Forty - ten = ...
Sixteen : two = ...



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Dinora ABDULLAJONOVA

CHECK YOUR MEMORY

There is given some words. Your task is divide them in the correct columns

Exercise, a noise, homework, money, dinner, house work, a translation, progress, cooking, a note.

Make

Do



Bekbergan OTAMURODOV,
the pupil of the school № 1st in Qo'shko'pir district, Kharezsm region

WHO IS LEARNED?

Read the definitions and match the suitable pictures.



1. They work in a bakery. They bake bread.
2. They work in barbers. Shave men's beards and cut men's hair.
3. They pick fruits and irrigate flowers.
4. They work in a kitchen. Prepare and cool food.
5. They work in a low court. Judge and sentence people.
6. They work in an office. Arrange appointments, type letters and organize meetings.

USEFUL ENGLISH

This task is necessary for your writing skill. There is given some key words about autumn season. You should write a little essay using those words...

Autumn words

Warm, often raining, wind, thunderstorm, cool and cold, leaves, don't swim...

In American English autumn calls fall. Autumn is the season after summer and before winter. Trees lose their leaves. The first month of autumn is September, flowers fall to garden. The weather gets colder and windy...



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Ma'mura G'ULOMOVA

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Bir kuni sen bilan istirohat bog'iga bordik. Bu bog' boshqalaridan daraxtlarga shakl berilgani bilan farq qilardi. Sen har bir archa, buta qarshisida to'xtab, hayrat bilan tomosha qilarding. Bog'bon bir shamshod daraxtiga shunaqangi zeb beribdiki, ko'rgan odam «voh» deb yuboradi. Xuddi alp yigitlarga o'xshaydi. Yana uchburchak, to'rtburchak shaklli archalar. Butalardan ayiq, kiyik, fil, suzishayotgan qo'chqor, sher, ajdarho, laylaklar yasalganki, xuddi hayvonot bog'ida yurgandek bo'ladi, odam. Farqi – joni yo'q, xolos...

Shunda ko'z oldimga tog'larimiz bag'ridagi cheksiz-chegarasiz o'rmonzorlar, butazorlar keldi. Ularni yovvoyi tabiat bag'rida ko'rganda, shunaqa shakllarga kiritish mumkinligini tasavvur ham qila olmayсан, kishi. Lekin insonning qo'li gul. Yovvoyilarni madaniy qilishda chek-chegarasi yo'q.

Birdan xayolim qo'ligul, rassom bog'bondan ustoz muallimlarga ko'chdi. Bolalar ham dastlab maktabga borganlari, o'rmon daraxtlari, butachalarni eslatib yuborar ekan-da. Ustozlari musavvir gulchiga o'xshab ularning atrofida shunaqangi parvona bo'lishadiki, jonlarini nisor qilib yuborishadi. Har biriga tabiatiga qarab, daraxt va butalarga o'xshab shakl va pardoz beradilar. Ba'zilari kiyikdek uchqur, fildek kuchli, shamshod daraxtdek alp, bog'bondek ixtirochi

digan bo'lib qolgan, xuddi katta yoshdagi odamga o'xshab. Men bu misollarni nima uchun aytyapman. Sen va sening teng-

Erkin MALIK,
O'zbekiston
Respublikasida xizmat
ko'rsatgan jurnalist



MUALLIM VA BOG'BON

bo'lib yetishadilar. Dunyo kezadilar, yurt bayrog'ini balandlarga ko'taradilar.

Men sening xayolingdan maktabing hovlisidagi archalar, shakl berilmagan butalar bir-bir o'tayotganini payqayman. Ularga ham mana shunaqa hayratomuz shakllar berish mumkinmi? Yo'q, bolam, ular o'sib, katta bo'lgan, suyagi qotib, egilmay-

doshlaring hali yoshsizlar. Suyaklaring qotmagan. Muallimlaringiz, ota-onalaringiz boshlagan yo'lga yuring, egiling. Insoniyat bog'idagi chiroyli gullarga aylaning. Shamshod daraxtdek alp bo'ling, qargan ko'zlarni quvontiring, mening alp bolalarim!

(Davomi bor)

KITOB

Ma'rifatga misoldir,
Sadoqatga timsoldir.
Qalb ko'shvida hiloldir,
Ezguliklar sochadi,
Baxt eshigin ochadi.



Bizga hamroh kitobdir,
Yo'limizga oftobdir.
O'qisang gar odobdir,
Quvonch ulashar har dam,
Mehrga to'la olam.

Shoira OMONOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa
tumanidagi 20-umumta'lim makta-
bining 4-«B» sinf o'quvchisi

UYQUCHI
SOAT

Bir kun ertalab tursam,
Soat to'xtab qolibdi.
Dangasalikda bilmam,
Kimdan o'rnak olibdi.

Darsga rosa kechikdim,
Ustozim berdi dakkini.
Soatning uxlagani,
Bo'libdi juda chakki.

Olib bordim ustaga,
Muvvatini buradi.
Shundan buyon soatim,
Tong otmasdan turadi.

Nozima NORMATOVA,
Surxondaryo viloyati, Sherobod
tumanidagi 42-umumta'lim makta-
bining 7-«B» sinf o'quvchisi

Uncha katta bo'lmagan, shinamgina poyabzallar shaharchasida o'ng va chap – aka-uka boshmoqchalar yashardi. Ular nafis alvon rangda edilar.

Boshmoqchalarning egasi bo'lgan sho'x bolakay Dias ko'proq o'ng poyiga e'tibor berar, chapi haqida doim unutib qo'yardi. Bundan xafa bo'lgan chap boshmoqvoy ko'zda yosh bilan akasiga hasrat qilardi: «Egamdan xafaman. U menga sira g'amxo'rlik qilmaydi. Tozalab yuvib qo'yish xayoliga ham kelmaydi. Hatto kuchukcha Aktos va mushukcha Markiz ham hol-u jonimga qo'ymaydi. Goh tishlab, goh g'ajib, ozor berishadi. Nima uchun? Men boshqa toqat qilolmayman», dedi va ko'chaga qarab yugurdi.

Uning ko'zi ko'chada

salobat bilan yur-
gan, sakrab-sakrab
chopayotgan juft-
juft poyabzallarga
tushdi. Ular sallo-
lanib yurishardi:
chiroyli botinka va
tuflilar, urf bo'lgan
baletkalar, sport
krossovkalari va
kedalar... Ranglari
ham har xil: qora,
oq, yashil, ko'k,
zangori tusda
bo'lib, istagan
o'lchovda edi.

Chiroyli charm
tuflilar kir bosib,
uvadasi chiqqan
boshmoqvoyga
mensimasdan ko'z
qirini tashlab so'roqqa tutdilar:

– Hoy, juldurvoqi, sen qayerdan paydo bo'lding? Nimaga yolg'izsan? Egang kim?

Bechora boshmoqcha juda noqulay ahvolga tushdi. Nima deyishini bilmay, ko'zini yerga qadadi. So'ng, chuqur xo'rsinib, yo'lida davom etdi.

Shu payt qulog'iga baland musiqa va allakimlarning o'vozi chalindi. O'girilib qaragan edi, peshtaxtasiga rang-barang, chiroyli tuflilar terilgan, peshtoqi yorqin chiroqlar bilan bezatilgan do'konga ko'zi tushdi. Yarim ochiq turgan eshikdan ichkariga asta mo'raladi. U yerda ikki juft: biri tillarang, ikkinchisi qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tuflilar turardi.

Uning kirganini ko'rgan shodon sotuvchi qizlar qo'shiq aytishni to'xtatib, shivirlay boshladilar: «Voy, bechora. O'zi yolg'iz qolibdi. Boshpanasi ham bo'lmasa kerak. Endi nima qiladi?» Boshmoqcha do'kon o'rtaida nima qilishini bilmay, turib qoldi. Shu payt birdan kichkintoy Dias, Aktos, Markiz, o'ng poy akasi yodiga tushdi.

«Nega shunday bo'ldi?» – xayolga cho'mdi u. «Axir do'stlarim menga e'tibor berishlari va ozor yetkazmasliklari uchun ularni biroz qo'rqitib qo'ymoqchi edim, xolos. Endi esa adashib qoldim...»

Boshmoqcha
achchiq-achchiq
yig'lagancha

ko'chaga chiqdi. Bu paytga kelib, atrofga tun cho'kkan edi. U esa hamon yo'lida ketib borardi. Yolg'izligi uchun qo'rquvga tushdi. Buning ustiga yomg'ir ham yog'a boshladi. Chapaqayvoy yo'l chetidagi qalin butaga ko'zi tushib, uning ostida jon saqlamoqchi bo'ldi. Endi butalar ostiga joylashib olganida, yonginasida turgan kekse, uvadasi chiqib ketgan boshmoqcha ko'zi tushdi. Qariya xirillagan ovozda undan so'radi:

– Sen qayerdan kelib qolding? Qaysi tomonga ketyapsan?

– Men issiq joyda, do'stlarim davrasida

ALVON
BOSHMOQCHANING
SARGUZASHTLARI

(Ertak)

yashardim. Ularsiz menga qiyin bo'lishini o'ylab ham ko'rman ekanman. Yaqinlarim meni ba'zida xafa qilishardi. Shuning uchun adablarini berib qo'ymoqchi edim. Endi esa o'zim shu ahvolga tushib qoldim. Qayerga borishni ham bilmayman, – deya qayg'uga botdi boshmoqvoy. Uning ko'z yoshlari shashqator bo'lib oqmoqda edi.

– Men ham qachonlardir uyda yashaganman, do'stlarim ham bor edi, – dedi kekse boshmoq afsus bilan.

– Sal narsaga arazlab qadrdon do'stlarimni tashlab ketganman. Xatoimni anglab yetganimda esa kech bo'lgandi. Sen esa hammasini to'g'rilashing mumkin. Yig'lama, kichkintoy. Hademay tong otadi. Sen o'z uying va do'stlaring oldiga bor.

Kekse boshmoqning sokin ovozi va umidbaxsh so'zlaridan kichkintoy uxlab qoldi. Tushida sho'x Aktos u bilan o'ynar, yalab-yulqab tortqilarmish. Boshmoqcha ko'zini ochib, bu tush emasligi, rostdanam Aktos, ha, ha, qadrdoni Aktos uni mahkam ushlab olganicha qayergadir sudrab ketayotgandi.

Boshmoqvoy o'zini o'nglab olishga ulgurmay, ne ko'z bilan ko'rsinki, uyda emish. Muzlab, nam tortib qolganiga ham qaramay kichkintoy Dias uni qo'lga olib quvonch bilan qichqirdi: «Seni juda sog'indim, yo'qolib qolganingdan rosa tashvishga tushdim».


Dias uni darrov yuvib quritdi va yaxshilab tozaladi. So'ng esa akasi – o'ng boshmoqvoyning yoniga qo'yd. Akasi ham ukasi topilganidan rosa quvondi.

Shu voqeadan so'ng kichkintoy Dias har ikki boshmoqvoyga birdek mehr ko'rsatadigan bo'ldi.

Rus tilidan Yusuf ABDULLAYEV
tarjimasi

Aziz bolajonlar, har kuni erta tongdan jonajon maktabingiz sari oshiqasiz.

SHOSHMA, QOIDAGA RIOYA QIL!



Ilmga chanqoqlik, ma'naviyat oshyoni sari shoshish, albatta, yaxshi. Ammo ba'zi hollarda avtomobillar serqatnov bo'lgan katta ko'chalardan yo'l qoidalariga amal qilmay, shoshqaloqlik ila o'tayotgan o'quvchilarni ko'rib, ko'nglingiz xira bo'ladi. Bundan bir yil muqaddam xuddi shunday hodisaga o'zim ham guvoh bo'lganman.

Erta tongda avtobuslar bekati tomon kelayotgan edim. Shu payt chorrahada avtomobilning kuchli tormoz bergan ovozi eshitildi. Atrofdagi odamlar o'sha tomonga qarab yugurdi. Men ham voqea joyiga shoshildim. Yerdan 8 yoshlardagi bolakay behush yotar, boshida bir

ayol «bolam»lab atrofga najot ko'zi bilan boqardi. «Spark» avtomobilidan voqea «qahramoni» bo'lmish yosh haydovchi yigit tushib, ayolga: «Bolangizning qo'lidan mahkam ushlasan-giz bo'lmasmidi?!» deya o'dag'aylay boshladi. Atrofdagi odamlar ayolning yonini olgach, haydovchi noiloj bola va onani mashinasiga o'tqazib kasalxonaga shoshildi. Ma'lum bo'lishicha, o'sha ayol har kuni 1-sinfda o'qiydigan katta o'g'lini mashina yo'lidan o'tkazib qo'yar ekan. O'sha kuni bolakay darsga kech qolayotganligi sababli piyodalar yo'lakhasidan o'tayotganda onasining qo'lidan chiqib, yo'ldan yugurib o'tmoqchi bo'lgan. Avtomobildagi yigit ham ishga kech qolayotganligi bois, tez harakatlangan. Yaxshiyamki, avtoularning tezligi yuqori bo'lmagan. Kasalxonaga o'z vaqtida yetkazilgan bolakay hozir hech narsa ko'rmagan-day bo'lib ketdi. Lekin shoshqaloqlik

bundan-da yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilamiz.

Olmoniyalik olimlarning ta'kidlashlaricha, yo'l-transport hodisalarining 80 foizidan ortig'i aynan shoshqaloqlik ortidan kelib chiqar ekan.

Yaqinda O'zbek – Yapon markazida yaponiyalik yigit menga ajoyib ma'lumotni aytdi. Uning so'ziga qaraganda, kunchiqar yurtda o'quvchilar hech qachon darsga kech qolmas ekan. Dars boshlanishidan yarim soat oldin bolalar sinfxonada bo'lisharkan. Bu mamlakatda maktab bitiruvchilarining 99 foizi hech qachon bir kun bo'lsa-da, dars qoldirmagan ekan. Balki shuning uchun ham Yaponiya ta'limda dunyoda tengsiz hisoblansa kerak.

Aziz o'quvchilar, maktabdagi darslarga o'z vaqtida borishga va yo'ldan o'tayotganda qoidalariga amal qilishga odatlaning.

Jamoliddin ABDULLAYEV

FUTBOLCHILARIMIZ –

«REAL MADRID» AKADEMIYASIDA

«Manchester Yunayted», «Real», «Liverpul», «Barselona», «Yuventus», «Bavariya»... Orangizda bu futbol jamoalarining ashaddiy muxlislari borligi aniq. Ammo ular ichida Madridning «Real» klubi chiroyli va betakror o'yini, yulduzli tarkibi hamda muxlislari ko'pligi bilan alohida ajralib turadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi va «Real» jamoasi o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatildi. Quvonarlisi, qisqa muddat oralig'ida ikki tomonlama hamkorlik doirasida qator loyihalar hayotga tatbiq etildi. Jumladan, shu kunlarda 20 nafar o'zbekistonlik bola «Real Madrid Foundation Clinic» dasturi bo'yicha «Master klass»larda ishtirok etib, o'z tajribalarini o'rnatish maqsadida Ispaniyaga yuborilishi rejalashtirilmoqda. Mazkur loyiha doirasida yosh charmtop ustalarimiz Madridning «Real» jamoasi akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishadi. Qolaversa, ular klub muzeyiga sayohat qilib, jamoa tarixi, o'ziga xos an'analari, erishgan yutuqlari haqida bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Eng muhimi, bolalar jamoaning yulduz futbolchilari bilan uchrashib, ular bilan yaqindan suhbatlashadilar.



TAEKVANDOCHILARIMIZ G'ALABASI

Qozog'istonning Atirau shahrida taekvando WTF bo'yicha yirik musobaqa bo'lib o'tdi. Bahslarda dunyoning 15 mamlakatidan 376 nafar sportchi sovrinli o'rinlar uchun kurash olib bordi.

Quvonarlisi, ilk bor tashkil etilgan Qozog'iston I Ochiq chempionati reyting turnirida umidli dayan ustalarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jumladan, Charos Qayumova, Madinabonu Mannopova, Shohruh Rajapov hamda Abror To'rayev kabi atletlarimiz o'z vazn toifalarida barcha raqiblarini mag'lub etib, yakunda oltin medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, yana ikki nafar taekvandochimiz kumush, 1 nafari esa bronza medali bilan taqdirlandi. Ushbu musobaqa orqali sportchilarimiz 2020-yil Tokiodagi yozgi Olimpiya o'yinlariga reyting ochkolari yig'ishni boshladi.

S. TURSUNOV

Respublika bo'ylab yoshlarni sportga ommaviy jalb qilish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida «Mustaqillik marafoni» tashkil etildi.

MUSTAQILLIK MARAFONI

Yurtimizning viloyat, tuman va shaharlarida o'tkazilgan yugurish bahslarida 142 mingdan ortiq, velo-marafonda 16 mingga yaqin yoshlar faol ishtirok etdi.

Toshkent shahrida o'tkazilgan marafonda 5 ming nafardan ziyod yoshlar (shundan 2000 nafarga yaqini qizlar) g'oliblik uchun o'zaro bellashdi.

O'g'il bolalar o'rtasidagi yugurish bahslarida Vladislav Mamadov, Mirsaid Buxarov, Humoyun Mahmudov shohsupaga ko'tarildi. Qizlar o'rtasidagi bellashuvlarda esa Marina Xmelevskaya, Nurxon Muhiddinova va Kamila Kuchkarovaga teng keladigan raqib topilmadi.



O'g'il bolalar o'rtasidagi velo-marafonda Javohir Egamberdiyev, Rustam Usmonov hamda Zokirxo'ja Ehsanov sovrindorlar safidan joy egallagan bo'lsa, qizlar bahsida Nafosat Qoziyeva, Mariya Arutyunyan va Safiya Karimova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

G'oliblarga medal, diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Nurbek QIDIRALIYEV

Aziz o'quvchilar, yoz davomida yiqqan kuchingizni endi yil davomida bilim olishga sarflaysiz. Shu orada hunar o'rganishga ham vaqtingiz ortadi.

IJODIYOT MARKAZIDA OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazida «Ochiq eshiklar kuni» bo'lib o'tdi. Tadbirga umumta'lim maktablari o'quvchilari taklif etildi. Ular markazdagi to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishib, o'zlariga ma'qul kelgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni maqsad qildilar.

— Menga doira to'garagi yoqdi. Shu bois, darsdan so'ng bu yerga kelib, soz chalishni o'rganmoqchiman, — deydi Yangiyo'l shahridagi 9-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Ahadullo Rahmatullayev.



Markaz o'quvchilari bugungi kunga kelib turli tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

— Shu kunlarda shogirdlarim bilan Qozog'iston Res-

o'quvchilari o'zlariga yasa-gan raketamodellari bilan qatnashadi. O'tgan yili ushbu

musobaqada umumjamoa hisobida 3-o'rinni egallagan edik. Bu yil ham yaxshi natijalar bilan qaytamiz, — deydi aviamodellashtirish to'garagi rahbarlari Abdunabi aka



publikasining Boyqo'ng'ir shahrida raketamodel yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqada ishtirok etishni rejalashtiryapmiz. Tanlovda Ayubxon Erkinov, Muhammadkamron Qobilov, Isroil Bahodirov singari iqtidorli

Hojiboyev va G'ayrat aka Nuriddinov.

O'quvchilar to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanish-gach, tengdoshlarining badiiy chiqishlarini tomosha qildilar.


Nigora ABDUNAZAROVA

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«OQ»LI SO'ZLAR - TOPQIRLIK MASHQI

Quyida ta'riflari bayon etilgan «Oq» bilan boshlanuvchi so'zlarning to'liq atalishini chizmaga qatorlar bo'yicha yozing.

1. Shahrisabzdagi me'moriy obida.
2. Toshkent viloyatidagi soy.
3. Daryoga nomdosh tuman.
4. Sirdaryo viloyatidagi tuman.
5. O'tkir hidli, poyasi pishiq, asosan supurgi qilinadigan yovvoyi o't.
6. Giyohlarga zarar keltiruvchi hasharot.
7. Chirchiq — Bo'zsuv kanaliga qurilgan nurxona.
8. O'simlik barglarini so'litib, quritadigan kasallik.
9. Mo'ysafid, nuroniy kishiga nisbatan berilgan ta'rif.
10. O'rta-pishar, serhosil qovun navi.
11. Sahro va cho'llarda yashovchi, yerga in quradigan parranda.
12. Ustoz raqqosa, O'zbekiston xalq artisti.
13. Sudda biror kishini himoya qiluvchi huquqshunos.
14. Ertapishar olma navi.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

JUMBOQLI TOPISHMOQ

Yozxon Kuzxonnikiga tashrif buyuribdi. Ikki dugona soya-salqin anhor bo'yida suhbatlashib o'tirishibdi. Yozxonning farzandlari birin-ketin



kelib Kuzxon bilan salomlashibdi. Yozxon bolalariga «Mevalar» do'koniga borib kelishni tayinlab, qo'llariga oltinrang pul tutqazibdi. Iyun, Iyul, Avgust ismli bolakaylar do'kondan olcha, olma, o'rik, gilos, shaftoli, anjir olib kelishibdi.

Aziz o'quvchilar! O'ylab ko'ring-chi, Kuzxon o'g'li Sentabrbekka qaysi do'konga borishni va nimalar xarid qilishni buyurdikin?

Muhtaram HASANOVA, Marg'ilon shahar, Erkin Vohidov nomli maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi

8

17-sentabr 2018



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SADULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSUNOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Tel: (0-371) 244-11-90.
Obuna indeks: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 27255
Buyurtma - V 2378

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi.
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani yetkiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma tabaq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08